

## 2020- yilning yanvar-avgust oylarida Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rinn tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

### 2020- yilning yanvar-avgust oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

3031,6  
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

101,5 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari  
hajmining o'sish sur'atlari

99,3 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari hajmining o'sish  
sur'atlari

2182,9  
ming so'm


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3031,6 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 323,5 mlrd. so'mga oshdi. Taqposlama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,5 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

### Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi,mlrd. so'm



2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning avgust oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 62,3 mlrd. so'mga o'sgan va atigi 418,0 mlrd. so'mga yetdi.

#### Taqqoslash uchun:

O'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 82,8 mlrd. so'mga o'sgan va 364,7 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil VII - diskret (iyul) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil VIII – diskret (avgust) oyining hajmi 63,6 mlrd. so'mga tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:**  
2019- yilning VII va VIII – diskret oylari o'rtaqidagi farqi 24,5 mlrd. so'mga kamaygan.



### Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

| <b>Xizmatlar - jami</b>   | <b>Hajmi,<br/>mlrd. so'm</b> | <b>O'tgan yilga<br/>nisbatan o'sish<br/>sur'ati, % da</b> |
|---|------------------------------|---|
| <i>shu jumladan:</i>  | <b>3031,6</b>                | <b>101,5</b>  |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari   | 151,3                        | 114,8   |
| Moliyaviy xizmatlar   | 824,3                        | 137,2   |
| Transport xizmatlari  | 494,1                        | 101,8   |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>   | 483,2                        | 100,6   |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari   | 77,7                         | 74,0  |
| Savdo xizmatlari  | 913,7                        | 88,8  |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar   | 73,7                         | 86,9  |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar   | 111,2                        | 109,8   |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar  | 45,7                         | 85,0  |
| Ijara xizmatlari  | 60,1                         | 83,7  |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash<br>bo'yicha xizmatlar                          | 73,5                         | 93,7  |
| Shaxsiy xizmatlar   | 84,5                         | 95,1  |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik<br>sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 44,1                         | 66,9  |
| Boshqa xizmatlar  | 77,7                         | 79,5  |

**Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**


*Dastlabki ma'lumotlar*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o'sishidagi asosiy omil, moliyaviy xizmatlar 37,2 % ga (ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmining mutloq o'sishiga ta'siri 2,9 % punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 14,8 % ga (mutloq o'sishiga ta'siri 0,2 % punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlar 9,8 % ga (mutloq o'sishiga ta'siri 0,1 % punkt). 2020- yilning yanvar-avgust oylarida jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi o'sish sur'ati 101,5 % ni tashkil etdi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining o'sishiga,  
xizmat turlari bo'yicha ta'siri, f.p****Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining nisbatan pastligiga asosiy omil bo'lib savdo xizmatlarining 12,7 % ga (ularning salbiy ta'siri 0,8 punktga), boshqa xizmatlar 21,4 % ga (-0,1 punktga), shuningdek, yashash va ovqatlanish xizmatlari 26,2 % ga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari 14,1 % ga, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 34,0 % ga, ijara xizmatlari 13,9 % ga pasayishi 0,1 punktga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ularning 30,1 % ini tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlari (27,2 %), transport xizmatlari (16,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,0 %) qayd etildi.

#### **Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**

## Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulush sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar-1,5 %, ijara sohasidagi xizmatlari – 2,0 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari 2,4 % hissasiga to'g'ri keldi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslanishi



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (37,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (14,8 %) va ta'lim sohasidagi xizmatlar (9,8 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmogda.

### Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi sezilarli darajada (33,1 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (26,0 % ga), boshqa xizmatlar (20,5 % ga), ijara xizmatlari (16,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (15,0 %) shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (13,1 % ga) da pasayish kuzatildi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda – 16,3 %.

### Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da

(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

55,1 %



Yuk tashish  
xizmatlari

44,9 %



Yo'lovchi tashish  
xizmatlari

Transport xizmatlarida avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi 97,8 % tashkil etadi.

Yuk tashish, avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining salmoqli qismini egallaydi. 2020-yil yanvar-avgust oylarida avtomobil transportida yuk tashish xizmatlarining ulushi 55,1 % ga yetdi.


Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida yo'lovchi tashish xizmatlari ulushi 44,9 % ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*


Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'r'in tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 30,1 % ni tashkil etib, bu 913,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo** – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

**Savdo xizmatlari tarkibi, % da  
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**



**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

**Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**

*Dastlabki ma'lumotlar*

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiylashtirilgan savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismiga, aniqrog'i 83,6 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,5 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiylashtirilgan hajmidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 824,3 mlrd. so'mni - tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar xajmi 551,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



**Ularning umumiylashtirilgan hajmidagi ulushi 27,2 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yil yanvar-avgust oylarida ularning ulushi 20,4 % ni tashkil etdi.

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmning 273,2 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.**



**Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 37,2 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yil yanvar-avgust oylarida ularning o'sish sur'ati 194,5 % ga yetgan.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da  
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

93,7 %

4,2%

2,1%

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 93,7 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 4,2 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,1 % ni tashkil etadi.


Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

*Dastlabki ma'lumotlar*

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKTning rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

AKTdan faol foydalanish keng qamrovli infratuzilmaga asoslangan bo'lib, u eng zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan, yuqori kadrlar salohiyatiga ega.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)



2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan


2020- yilning yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 151,3 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 114,8 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiylajmi hajmdagi ulushi 5,0 % ni tashkil etdi.

### Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da**  
*(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)*



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 99,4 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 0,1 %, boshqa aloqa xizmatlari – 0,1 %, noshirlilik xizmatlari- 0,3 %, shuningdek, axborot sohasidagi xizmatlar – 0,1 % dan tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

**Ta'lim sohasidagi xizmatlar  
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

2020- yilning yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 111,2 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,8 % ni tashkil etdi.



**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 74,0 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 77,7 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiylajmiy hajmidagi ulushi atigi 2,6 % ni tashkil etdi.



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash** bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

88,2 %



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

11,8%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyoj hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 88,2 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 11,8 % ni tashkil etdi.


**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)


*2020- yilning yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 45,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiyligi hajmida ularning ulushi 1,5 % ni tashkil qildi.*

*O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 85,0 % ni tashkil etdi.*



*Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarining daromad darajasi, didi va xohish-istiklariga qarab differensiyalanadi.*

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-avgust oylarida)



*Xizmatlarning umumiyligi hajmida Jizzax shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 54,6 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriqoq ekanligi bilan izohlanadi.*

### Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



## Dastlabki ma'lumotlar

Shuningdek, eng katta ulush Sh.Rashidov (11,9 %), Zomin (6,7 %), G'allaorol (5,3 %), Baxmal (5,2 %), Do'stlik (2,9 %) Paxtakor va Forish (2,8 %) tumanlariga qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Yangiobod (0,7 %), Zafarobod, Arnasoy (1,4 %), Mirzacho'l (2,0 %) va Zarbdor (2,3 %) tumanlarida kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida Jizzax shahrining ulushi 56,9 % ni tashkil etgan.

Yangiobod tumanning ulushi esa eng past ekanligi – 0,8 % kuzatilgan.

Ma'lumki, zamонавиј О'збекистоннинг ијтимоиј-иқтисолиј ривожланиш истиqbollari, милиј ва маҳалий маnfaatlarni hisobga олган holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan оqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoxda.

## Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2182,9 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,3 % ni tashkil etdi.



- Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.
- Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra,  
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


Xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va  
tashkilotlar soni - 11304 birlikda

Ularning umumiyligi  
sonidagi ulushi - 57,7 %

O'tgan yilning shu davriga  
nisbatan o'sish  
sur'atlari - 115,2 %



**2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




2020- yilning  
1- sentabr holatiga  
ko'ra, xizmatlar  
sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona  
va tashkilotlarning  
ulushi – 57,7 %,  
sanoat – 16,3%,  
qishloq, o'rmon va  
baliq xo'jaligi sohasi –  
15,8 % ga yetdi va  
atigi 10,2 % i qurilish  
hissasiga to'g'ri keldi.

Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

**2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (38,3%) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 10,6 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,4 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,8 % ga teng bo'ldi.

Sog'lijni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 9,8 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 35,1 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 10,9 %, tashish va saqlash – 5,8 %, axborot va aloqa – 1,8 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,5 % hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 43,9 % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,5 mingtaga ko'paydi.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yil 1- sentabr holatiga ko'ra ularning soni 1,6 mingtaga ko'paygan.


Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 29,3 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,0 mingtaga ko'paydi va 4,4 mingtaga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi – 28,0 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 0,1 mingtaga ko'paydi va 1,2 mingtani tashkil etdi.

#### Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

**2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 71,9 % ga to'g'ri keladi.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 68,5 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1403 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 8123 tani tashkil etdi va o'sishi esa 20,9 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyligi sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 49,8 % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 49,5 % ekvivalentida qayd etildi.



Viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlari, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qildi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**Tel.: 72-221-51-27**